



RULES AND TRADITIONS OF THE ENTHRONEMENT OF RULERS IN THE BUKHARA KHANATE

Sharofiddin Nurmukhammadov

Senior Lecturer at Sarbon University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: dynasty, Chingizid, white felt rug, tradition, custom, throne, khan, ruler, heir apparent, Amir Temur, Blue Stone (Ko'k Tosh), enthronement of a khan, ceremony, jarga, kurultai.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article analyzes the historical rules and traditions of enthroning rulers in the Bukhara Khanate. It examines the Chingizid tradition of raising a khan on a white felt rug, as well as the Blue Stone tradition introduced by Amir Temur. It also sheds light on the ancient customs, rules, and ceremonies of being raised on a white felt rug, which were prevalent among Turkic peoples and Mongols. The article explores the importance of religious figures, tribal representatives, and other influential individuals in legitimizing power, as well as the social and political aspects of the enthronement process. These ceremonies in the history of Uzbek statehood were aimed at ensuring the sanctity and continuity of rulership.

BUXORO XONLIGIDA HUKMDORLARNI TAXTGA KO'TARISH QOIDALARI VA AN'ANALARI

Sharofiddin Nurmuxammadov

Sarbon universiteti katta o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: sulola, Chingiziy, oq kigiz, an'ana, udum, taxt, xon, hukmdor, valiahd, Amir Temur, Ko'k tosh, xon ko'tarish, marosim, jarga, qurultoy.

Annotatsiya: Ushbu maqola Buxoro xonligida hukmdorlarni taxtga ko'tarish bo'yicha tarixiy qoidalar va an'analarni tahlil qiladi. Unda Chingiziylarning oq kigizda xon ko'tarish an'anasi, Amir Temur tomonidan joriy etilgan Ko'ktosh an'anasi ham ko'rib chiqilgan. Shuningdek, turkiy xalqlar va mo'g'ullarda qadimdan mavjud bo'lgan Oq kigizga ko'tarish marosimi, odatlari, qoidalari yoritilgan. Maqolada hokimiyatni

qonuniylashtirishda ruhoniylar, qabila vakillari va boshqa nufuzli shaxslarning ishtiroki muhimligi, shuningdek, taxtga o'tirish jarayonining ijtimoiy va siyosiy jihatlar ham o'rganilgan. O'zbek davlatchiligi tarixidagi bu marosimlar hukmdorlikning muqaddasligini va uzviyligini ta'minlashga qaratilgan.

ПРАВИЛА И ТРАДИЦИИ ВОЗВЕДЕНИЯ НА ПРЕСТОЛ ПРАВИТЕЛЕЙ БУХАРСКОГО ХАНСТВА

Шарофиддин Нурмухаммадов

старший преподаватель Университета Сарбон

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: династия, Чингизид, белая кошма, традиция, обычай, трон, хан, правитель, наследник, Амир Темур, Голубой камень (Кок-Таш), возведение в ханы, церемония, джарга, курултай.

Аннотация: Данная статья анализирует исторические правила и традиции возведения на престол правителей Бухарского ханства. В ней рассматривается традиция провозглашения ханов из рода Чингизидов на белой кошме, а также традиция, введённая Амиром Темуром, — церемония Кок-Таш (Голубой камень). Подробно описаны древние обряды, обычаи и правила возведения на белой кошме, существовавшие у тюркских и монгольских народов. В статье также исследуется важная роль духовенства, представителей племён и других влиятельных лиц в легитимизации власти, а также социальные и политические аспекты процесса восшествия на трон. Эти церемонии в истории узбекской государственности были направлены на обеспечение священности и преемственности правления.

Kirish. O'rta asrlarda Movarounnahrda mavjud bo'lgan davlatlarning boshqaruv tizimida hukmdorlik an'analari va unvonlarida "xon"larning alohida ahamiyati bo'lgan. Bu unvonga sulolaviy tizim asosida erishilgan va uning Turondagi davlatlar boshqaruvida uzviy davom etishi Chingizxon nomi bilan bog'liq. Davlatning ichki va tashqi siyosatini tartibga solishda Chingizxon tomonidan e'lon qilingan qonunlar to'plami – "Yasoq" muhim rol o'ynaydi. Movarounnahr va Xuroson mo'g'ullar tomonidan egallangan davrdan boshlab (XIX asr o'rtalariga qadar) mazkur qonunlar asosida davlat va jamiyat boshqaruvida Chingizxon avlodlari "xon", boshqa turkiy qabilalarning yo'lboshchilari esa "amir" sifatida xonlarning tayanchi bo'lib xizmat qila boshladi. Bu boshqaruv tamoyili Markaziy Osiyo xalqlarining ongiga singib ketgan bo'lib, faqat chingiziylarninggina oliy hukmdor bo'lishi qoida tusiga kirib qolgan edi.

Ma'lumki, turkiy va chingiziy an'analarga ko'ra, taxtga o'tiradigan xonlar oq kigizda ko'tarilib, taxtgacha olib borilgan. Amir Temur esa taxtga o'tirishda oq kigizni bekor qilmagan bo'lsa-da, lekin yangi an'ana, Ko'ksaroyni qurdirib, uning ichida taxt o'rnatib, uni chingiziy xonlarining oq kigizi va taxtidan qolishmasligi uchun "ko'ktosh" deb atadi hamda o'zi shu ko'ktoshda o'tirgan (Keyinchalik, Samarqandda taxtga chiqqan ko'plab hukmdor ko'k toshga o'tirgan). Buning mohiyati shundaki, mazkur tosh (taxt) ko'k rangda bo'lmasa-da, u ko'kdan tushganligi hamda turkiylarda ko'k ilohiy qudrat ramzi bo'lganligi uchun "soxta xon"ning bu taxtga o'tira olmasligi, ya'ni, bunday sharafiga ega bo'lolmasligi naql qilinadi [1].

Xon saylanishida mavjud turkiy qoidalar va sulola vakillarining ta'siri kuchli edi. Davlat boshqaruvida muhim o'rin tutgan udumlardan biri oliy hukmdorni tayinlash, ya'ni "xon ko'tarish" marosimi bo'lib, bu marosim o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. "Xon ko'tarish" marosimi aniq bir tartiblar asosida va doirasida amalga oshirilgan. Tarixiy manbalar O'rta Osiyo xonliklarida oliy hukmdorni oq kigizga o'tqazib, xon ko'tarish tadbiri uzoq vaqtdan beri qo'llanib kelinganidan dalolat beradi. Masalan, VI asrga oid manbalar ma'lumotlariga ko'ra, bu davrda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan Turk xoqonligida yirik amaldorlar taxt vorisini kigizga o'tqazib, quyosh harakatiga monand ravishda to'qqiz marta aylantirganlar va har bir aylanishda marosim ishtirokchilari yangi xoqonga ta'zim qilganlar [2].

Temuriylardan keyin hokimiyatga kelgan shayboniylar hukmronligi davrida ham bu an'analar davom etdi. Poytaxt Buxoro shahriga ko'chgankezlarda ham Samarqandda, ko'ktoshda taxtga o'tirish marosimi amalga oshirilib, keyin poytaxtga qaytilgan. Mulla Olim Mahdum hojining "Tarixi Turkiston" asarida xon ko'tarish odatiga shunday ta'rif beriladi: «Aksar nusxamizda "xon qildi" degan ibora o'rniga "xon ko'tarildi" lafzi yoziladur. Oning sababi o'zbek rusumicha bir odamni xon qilmoqqa ittifoq qil'ondan keyin ani oq namatga solib, ul namatni to'rt tarafdin to'rt ulug' mansabdagi odamlar ko'tarib, taxtga qo'yadurlar. Bu rasm ijro qilingandan keyin, ul zotga xonlik ismi itloq qilinadur. Binobarin, xon ko'tardi deb yoziladur» [3].

Shunisi qiziqarlilik, xon ko'tarish tartibi to'g'risidagi bu qadimiy odat turkiylardan mo'g'ullarga o'tib, uzoq vaqt saqlanib qolgan. Ushbu ana'nani tahlil qilganimizda, davlat boshlig'i turk va mo'g'ul xalqlarida odat huquqi qoidalari asosida saylanib qo'yilganini ko'rishimiz mumkin. Xon saylash qurultoyda Chingizxon xonadoniga mansub bilimdon, o'qimishli va layoqatli kishilardan tanlab olingan. Ayniqsa, Yaso va odat huquqi, turkiy xalqlarning qadimiy qadriyatlari va tartiblarini yaxshi bilishi talab qilingan. Chunki biror xon davlat qonunlari bilan hisoblashmagani uchun taxtdan olinsa, uni darhol qarindoshlari, yaqin kishilari bilan qal'aga qamash jazosiga tortilgan. Garchi xon ko'tarishda oq kigizga o'tqazish

odat bo'lsa-da, mo'g'ullarda qora kigizga o'tqazib ko'tarish odati ham ma'lum. Bunday holatda qora kigiz uchlarini tutib turgan to'rt ulus boshliqlari xonga qarab: "Boshingni ko'tarib quyoshga qara, sen soyasi bo'lgan abadiy Yaratguvchini bilib ol, o'z hokimliging davrida osmonda, yerdagiga qaraganda, yanada balandroq bo'lish uchun uning ilohiy irodasiga amal qil. Agar sen bu xohishga qarshi borsang, bu dunyoda qattiq jazoga duchor bo'lasan, hamma boyliklaringdan senda faqatgina mana shu o'tirgan kigizing qoladi", deganlar. Shunda xon ularga murojaat qilib: "Mening buyruqlarimni bajarasizlarmi? Men yuborgan yerga borasizlarmi? Men chaqirganimda yetib kelasizlarmi?" deb ulardan so'ragan. Tasdiq javobini olgan xon: "Hozirdan e'tiboran mening so'zim sizlarga qilich bo'lsin", deb amr qilgan [4]. Oq kigizga ko'tarish an'anasi bo'yicha yozma manbalarda uchraydigan ilk ma'lumotlar Turk xoqonligi davriga oid. Xitoy yilnomalarida ma'lumot berilishicha, ashinaliylar davrida taxt vorisini yaqin kishilari va yirik amaldorlari tomonidan oq kigizga o'tqizilib, yuqoriga ko'tarilgan holda quyosh harakati bo'ylab, sharqdan g'arbga tomon o'tovning atrofida to'qqiz marta aylantirilgan. Har bir aylanganida amaldorlar unga ta'zim qilganlar. Shundan so'ng xoqon otga o'tqizilib, uning bo'yniga ipak mato bilan tomog'i siqilib, undan xoqonlikni necha yil boshqarmoqchi ekanligi so'ralgan [5]. Oq kigizga ko'tarish qoraxoniylar, chingiziylar hukmronlik qilgan davrlarda ham davom etgan. Bundan ko'rinadiki, xon ko'tarish turk va mo'g'ul xalqlarida deyarli bir xil qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan. Shuningdek, bu odat turkiy xalqlarda rivojlangan islom davrigacha davom etgan bo'lsa, mo'g'ullarda esa bu ancha uzoq vaqt davom etib, quyosh ilohiga sig'inish mavjud edi. Xon ana shu ilohning yerdagi soyasi hisoblangan. Xon ko'tarishda takrorlanadigan jumlar xuddi xon bilan fuqarolar o'rtasidagi bitimni anglatar edi. Xon savoliga tasdiq javobi ijtimoiy hokimiyatning xon qo'lida to'la to'planishini yakunlaydi. Oltin O'rda tarkibidagi Shaybon ulusidan tashkil topgan dasht o'zbeklarining davlatida ham ana shunday odat huquqlari mavjud bo'lib, ular garchi dastlabki yillarda mo'g'ul odatlaridek ko'rinsa-da, bu qadimiy turkiy odat an'analari xon ko'tarishning o'zlariga qardosh bo'lgan mo'g'ullar tomonidan Chingizxon shakllangan edi.

Turon xalqlari jundan maxsus bosma usulda tayyorlangan kigizdan qadimgi davrlardayoq foydalana boshlaganlar. Turonliklar kigizdan gilam o'rnida to'shama sifatida foydalanganlar, bundan tashqari o'tovlarni o'rashda, qalpoq, telpak tikishda mato o'rnida ishlatganlar. Gerodotning ma'lumot berishicha, sak jangchilarining cho'qqi qalpoqlari ham qalin kigizdan tikilgan. Kigiz so'zi lug'aviy jihatdan umumturkiy so'z bo'lib, yerga solinadigan, yungdan to'qiladigan keng va enli palos, gilam, sholcha ma'nolarini anglatadi. Kigiz so'zining yuzaga kelishi uning tayyorlanish jarayoni bilan bog'liq.

Turkiy soʻz boʻlgan kigizni arab tilida lubud, fors tilida namat deb ham atashadi va u aksariyat chorvachilik rivojlangan hududlarda asosan qoʻy yungidan bosib tayyorlanadi. Kigizchi hunarmandlar dastlab qoʻy yungini oq, sariq va qora ranglarga ajratib olganlar. Soʻngra yunglar savachoʻp yordamida savalangan, savalangan yung yana bir bor ishlov berilgach, ranglangan va quyish (yoyib chiqish), oʻrash, tepish, bilaklash, quritish singari bir qancha bosqichlardan oʻtkazilgan [6]. Kigiz bosish bilan shugʻullanuvchilar kasb-kori sifatida kigizchilik ham asrlar davomida rivojlanib borgan. Turon xalqlari orasida qalin va zich qilib bosilgan oq kigizlar ayniqsa yuqori qadrlangan. Oq kigiz tayyorlash uchun tuya junidan foydalanilgan.

Oq kigizning toʻrt uchini eng nufuzli amaldor va diniy rahnamolargina koʻtarish huquqiga ega boʻlgan. Ushbu udumlar bajarilgan taqdirdagina uning hokimiyati qonuniy hisoblangan. Oq kigiz esa poklik va adolat timsoli sifatida qaralgan. Islom dinining Markaziy Osiyoga kirib kelishi bilan ushbu marosimda islomiy tamoyillar ham oʻz aksini topa boshladi. Shuning uchun ham Xon koʻtarishda oq kigizning bir uchini naqshbandiya xojalari koʻtarib turgan. Shuningdek, bunga Abdullohxon (1583-1598)ni taxtga oʻtqazish marosimi ham dalil boʻla oladi. Shunisi qiziqki, ikkita tarixiy manbada ushbu marosimda qatnashgan shaxslarning nomlari turlicha keltiriladi. Jumladan, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida “Hazrat xoja bir guruh arkoni davlat, masalan, naqobatli xojazoda Yusufxoja, hojiyi haramiyin Turdikaxon, ulugʻ noʻyon Nazarbiy va izzatli amir Tursunbiylar bilan onhazratni podshohlikka koʻtarib, joyiga qoʻydilar” [7], deb koʻrsatiladi. Muhammad Tolibning “Matlab at-tolibin” asarida bu holat quyidagicha tasvirlangan: “Hazrat eshon egasi ikki sharif haram tavofi paytida zamzam suviga yuvgan va endilikda eshonning bisotida boʻlgan oq namatni majlisga keltirib, sohibqironni ushbu namatga oʻtirgʻizdi. Hazrat eshon arkoni davlat, yaʼni Yusufxoja naqib, Qulbobo Koʻkaltosh va Turdikaxon bilan namatning toʻrt burchagidan olib, podshoh qilib koʻtardilar” [8]. Ammo ikkala holatda ham koʻrinib turibdiki, naqshbandiya xojalari ushbu xon koʻtarish odatida Abdullaxonni qoʻllab-quvvatlab oq kigizning bir uchini koʻtarib turgan. Bu bir tomondan Buxoroda eng taʼsirli xonadon aʼzolarining Abdullohxonga munosabatini bildirsa, ikkinchi tomondan din arboblarning ham xon nomzodini toʻla qoʻllab-quvvatlashi edi.

Umuman, shayboniylar davriga kelib oq kigiz va koʻk tosh udumlari uygʻunlashtirildi. Oʻzbek sulolalari davrida oʻzbek xonlari bunga qoʻshimcha ravishda temuriylar davrida Moʻgʻulistondan keltirilgan, dastlabki vaqtda Koʻksaroyda turgan “Koʻk tosh” (taxt toshi deb ham yuritiladi) ustiga tantanali oʻtirish odati ham boʻlgan [9]. Ehtimol, bu shayboniylar oʻzlarini rasman temuriylar davlatining qonuniy egalari deb hisoblashlarining ramziy ifodasi

bo'lsa ajab emas. Bu davrda marosim tartibi quyidagicha edi: marosim o'tkaziladigan zalga farroshlar (gilamlarni to'shaydigan xizmatkorlar) gilamlar, paloslar to'shab, taxt o'rnatardilar; taxtga o'tirishning qulay vaqtini aniqlardilar va shundan keyingina sultonlar, amaldorlar, musulmon ruhoniylarining vakillari taklif etilardi. Munajjimlar belgilagan vaqtda xonni oq namatga o'tqazishar, namatning chetlaridan zodagon urug' vakillari ushlab turishardi. So'ng yangi saylangan xonni taxtga o'tqazishar va sovg'a-salomlar ulashilgan ziyofat boshlanardi. Shu bilan birga, xon marosimda ishtirok etgan har bir kishiga qimmatbaho to'n in'om etardi. Keyin xon sharafiga xutba o'qilib, uning nomi bitilgan tanga zarb etilardi.

Odatda, xon o'limidan so'ng "valiahd" xon etib saylanar edi. Xon nomzodini ko'rsatishda mehtar, qo'shbegi va yasovulboshi katta rol o'ynaganlar. Hech shubha yo'qki, yuqori tabaqa a'yonlari va xon urug'lari tor doirada o'tkaziladigan saylov avvaldan kelishib qo'yilgan bo'ladi, xonni tayinlash esa rasmiy bir marosimdek gap edi. Yangi xon e'lon qilingach, marhum xon dafn etilib, "davr falonchi xon davri" deb jarchilar jar solardilar [10]. O'zbek xonliklariga kelgan eronlik elchining guvohlik berishicha, "ta'ziya marosimidan so'ng qozi va ulamo, amir va vazirlar yig'ilishib, valiahd shahzodaga xonlikni taklif etadilar. Bo'lg'usi xon boshida o'zini bu taklifdan olib qochgan va istamayotgan qilib ko'rsatadi. So'ng qat'iy ravishda ochiqchasiga "agar xon bo'lishimga hammangiz birdek rozi bo'lsangiz, keyinchalik, xonligim davrida xon sifatida o'limga mahkum etish kabi og'ir farmonlar berishimga to'g'ri kelib qolsa, hech biriga qarshi chiqmaysizlarmi?" deydi. Qozikalon va boshqalar rozilik alomatini bildiradilar. Shundan keyin uni oq kigizga o'tqizadilar va to'ralar, amirlar va ulamo kigizning chetlaridan tutib, silkitgancha taxt ustiga tashlashadi. Tashlayotganda shunday harakat qilishadiki, bo'lg'usi xonning yer tuban qulashi yo telpagi boshidan uchib ketishi ham hech gapmas. Shundan so'ng kigizning biron burchagidan har kim pichoq bilan bir qarich miqdorda kesib, uylariga olib ketadilar. Aytadilarki, chig'atoy avlodidan biri shu marosimda hozir bo'lmaguncha yangi xon taxtga chiqib o'tirishi rasm emas ekan" [11]. Bundan anglashiladiki, qadimlarda turkiylarda bo'lgan odat – uloqtirilgan yangi xon taxtga o'rinish o'tirib ololsa, uzoq vaqt hukm suradi. Agar taxtga o'rinish qololmasa, tez orada taxtdan ag'dariladi yoki kamroq hukmronlik qiladi, degan mohiyatni anglatgan.

Amerikalik olim Tomos Velsford xonlarni taxtga chiqarish jarayonini quriltay deb ataydi [12]. Shayboniylar va ashtarxoniylar sulolasi boshqaruvi davrida xon ko'tarish marosimida kigiz ustiga o'tkazilgan va ko'k toshga eltilgan. E'tiborlisi shundaki, bu sulolalar vakillari kigiz va ko'ktoshdan baravar foydalanadilar. Ashtarxoniylar davrida ham Samarqanddagi ko'ktoshga o'tirish – taxtni qonuniy egalladi ma'nosini bildirgan. E'tiborlisi, bu davrda ko'ktosh va kigiz

ustiga xonni o'tkazish marosimlari bir-biriga qo'shilib ketgan. Ya'ni, kigiz ko'ktosh ustiga yozilgan va uning to'rt burchagidan ushlagan amaldorlar uni baland ko'tarishgan [13].

Ashtarxoniylar sulolasi davrida ham hukmdorlarning taxtni egallashi xon ko'tarish marosimi orqali amalga oshirilgan [14]. Diqqatga loyiq tomoni shundaki, ashtarxoniylar davrida, xususan, XVII asrda ham Samarqandda ko'ktoshga o'tirish orqali xonlik taxtini egallash an'anasidan ham foydalanganlar. Bundan ko'rinadiki, Chingizxon bilan bir qatorda, Amir Temurning ham hokimiyatiga ehtirom va huquqiy asos sifatida qaralgan. Natijada bu davrda ko'ktosh va kigiz ustiga xonni o'tkazish marosimlari bir-biriga qo'shilib ketgan. Ya'ni, kigiz ko'ktosh ustiga yozilgan va uning to'rt burchagidan ushlagan amaldorlar uni baland ko'tarishgan [15]. Jumladan, Muhammad Amin Buxoriyning "Muhit at-tavirix" asarida Abdulazizxon (1645-1681)ning 1645-yil Xo'janddan Samarqandga kelgani va Amir Temurning taxtiga o'tirganligi haqida ma'lumotlar mavjud [16].

Xonlar qurultoyda saylangan bo'lib, manbalarda bu marosimda amaldorlarning joylashuv tartiblari haqida ham ma'lumotlar saqlanib qolgan. Jumladan, XVII asr muarrixii Muhammad Tolibning yozishicha, eng oldingi o'rinda xon taxti joylashgan. Hukmdorning chap tarafidagi birinchi joyni naqib lavozimidagi shaxs egallagan. Undan keyin shahzodalar va otaliq mansabi va so'ng qolgan amaldorlar birin-ketin o'z nufuziga qarab joylashgan. Xonning o'ng tomonida dastlab shayxulislom va qozi, keyingi o'rinlarda qolgan diniy mansab egalari o'tirishgan [17]. Bu marosimdagi yig'ilish tartibi jarga deb atalib [18], taxtning ikki tomonidan doira shakl ni hosil qilgan holda o'tirilgan. Tarixchi J.Sangirovning tadqiqotlariga ko'ra, taxtga o'tirish marosimida mahalliy hokimlarning ham ishtirok etish tartibi mavjud bo'lgan. Masalan, 1702-yil Ubaydullaxon taxtga o'tirganida, tabriklash uchun Urgut hokimi Ollohberdiy Buxoroga yo'l oladi. Ammo, markaziy hukumatdan maxsus yorliq olmasdan kelgani sababli jazoga tortiladi. Va aksincha, yorliq asosida tashrif buyurgan Samarqand hokimi Muhammad Rahimbiy yuz yaxshi kutib olinadi [19]. Ashtarxoniylar davri muallifi Samandar Termiziyning guvohlik berishicha, jargadagi eng oldingi o'rinda taxt joylashgan bo'lib, unda xon o'rin egallagan. Xonning o'ng va chap tomonida nufuziga qarab shahzodalar, amaldorlar va qabila sardorlari o'z o'rinlarini egallashgan [20]. Buxoroga Abdulazizxon davrida tashrif buyurgan B. A. Pazuxinlar esdaliklarida jargada amaldorlarning joylashuv tartibini o'zlari ko'rgani bo'yicha tariflashgan. Unga ko'ra, xonning chap tomoni eng e'tiborli hisoblangan va chap tomonning boshida naqib lavozimidagi shaxs turgan [21]. Rus tadqiqotchisi A.Alekseyev ham hukmdorning chap tomoni o'ta mo'tabar ekanligini ta'kidlab, birinchi joyni naqib lavozimidagi shaxs egallaganligini qayd etadi [22]. Muhammad Tolibning guvohligicha, xonning o'ng tomonidagi dastlabki o'rinlarni shayxulislom va bosh qozi egallagan bo'lsa [23], V.Bartoldning davom etib yozishicha, o'ng

tomonda oliy qozidan so'ng naqshbandiya xojasi, sadr, sudur, harbiy qozi, a'lam va birin-ketin qolgan diniy ulamolar o'rin olishgan [24]. Qurultoyda o'tirishdagi amaldorlarning joylashuv tartibi saroyda o'tkaziladigan turli bayram tadbirlari va to'y-u tomoshalar uchun ham deyarli xos bo'lgan deyish mumkin. Masalan, Boqi Muhammadxonning Imomqulixon va Nadr Muhammadxonlar uchun o'tkazgan to'yida ham xuddi shu tartibda barcha o'z joyini egallaydi [25].

Mazkur udumni ashtarxoniylar sulolasidan keyin hokimiyatga kelgan mang'itlar ham siyosiy maqsadlaridan kelib chiqib davom ettirganlar. Buxoroning mang'itlar sulolasidan bo'lgan ilk hukmdori Muhammad Rahimbiy ashtarxoniylar sulolasidan bo'lgan Abulfayzxon o'ldirilganidan keyin darrov xonlik taxtini rasman egallab olmadi. U chingiziylardan bo'lmagani sababli o'z hokimiyatining qonuniyligini ta'minlash maqsadida Chingizxon avlodlaridan bo'lgan ashtarxoni Abulfayzxonning qiziga uylandi va o'z qizini uning o'g'li Abdulmo'minga uzatdi. Anke fon Kyugelgenning qayd etishicha, Muhammad Rahimxon Abulfayzxonning qiziga uylanish yo'li bilan o'z hokimiyatini mustahkamlashga ham harakat qiladi [26]. Bu borada Mirzo Shams Buxoriy ruhoniylar tashabbusi bilan Muhammad Rahimxon 1756-yilda Abulfayzxonning qizi Yulduz begimga uylanib, xon unvonini olganini keltiradi [27]. Muhammad Rahimbiy oq kigizga ko'tarish marosimida nufuzli o'zbek qabilalari vakillaridan tashqari, ruhoniylar ham ishtirok etishgan. Uning oq kigizga o'tqazilish marosimi Muhammad Vafoyi Karminagiyning "Tuhfat ul-xoniyy" asarida batafsil tasvirlangan. Ushbu tadbir hukmdorning siyosiy qonuniyligini har tomonlama tasdiqlash va keng ijtimoiy qatlamlarni jarayonga jalb etish maqsadini ko'zlagan. Bu jarayon doirasida xon o'z noiblarini, qozilarni, sayyidlarni, yirik davlat arboblarni hamda viloyatlar noiblarini Buxorodagi Ark qal'asiga maslahatga taklif etgan. Muhammad Rahimxon yig'ilishda davlatning siyosiy ahvoli va o'z boshqaruv rejasi haqida nutq so'zlagan, yig'ilganlar esa uni bir ovozdan qo'llab-quvvatlab: "Sen toj va taxtga loyiqsan... Sen – hukmdorsan, biz esa xizmatkorlarmiz," deya o'z sodiqliklarini bildirganlar [28].

1756-yilning 16-dekabrida Muhammad Rahimxonning rasmiy taxtga o'tirish marosimi o'tkazilgan. Ushbu jarayon Arkning "ko'rinishxona"sida o'tkazilib, bu joy marosimga maxsus tayyorlangan: gilamlar to'shalib, taxt o'rnatilgan. Oq kigiz taxt poyida yozilib, xon munajjimlar belgilagan qulay vaqtda ushbu kigizga o'tqizilgan. Taxtga o'tqazish marosimida yirik qabila vakillari (mang'it, o'tarchi, baxrin, saroy) qatnashgan, shuningdek, qozilar, sayyidlar va xojalar ham jarayonga jalb etilgan [29]. Muhammad Rahimxonning taxtga o'tirishi nafaqat siyosiy hokimiyat almashinuvi, balki keng ijtimoiy qatlamlar ishtirokini ta'minlovchi muhim siyosiy va ijtimoiy jarayon sifatida tarixda muhrlangan. "Tuhfat al-xoniyy"da keltirilgan ma'lumotlarga

ko'ra, mazkur tadbir shayxulislom Is'hoqxo'ja va qozikalon Nizomiddin roziligi bilan amalga oshirilgan bo'lib, Muhammad Rahimxon hokimiyatining rasman tan olinishiga olib keladi. Muhammad Rahimxonning Abulfayzxon qiziga uylanib, xonlik taxtini egallashiga izoh bergan Muhammad Vafo Karminagiy asarda Muhammad Rahimxonni "Chingiziylar xonadonining so'nib borayotgan nurini qaytadan yorituvchi najotkor" sifatida baholaydi [30]. Mazkur nikoh tadbiridan so'ng Muhammad Rahimxon oq kigizda ko'tarilib, xonlik taxtiga o'tqazilgan. Bay'at marosimi davomida yangi xon oldida barcha ulamo va arboblari ta'zim qilib, sodiqliklarini bildirgan. Keyingi hukmdorlar davrida bu an'ana "dastbay'at" deb atalib, xonning qo'lini o'pib, uni peshona va ko'zlariga tekkizish bilan amalga oshirilgan. Marosim so'nggida katta ziyofat tashkil etilib, qatnashchilarga qimmatbaho to'nlar taqdim etilgan. To'n hokimiyat ramzi sifatida namoyon bo'lib, uning matosi, rangi va bezaklari hukmdor va mansabdor shaxsning ijtimoiy maqomini aks ettirgan [31].

- Buxoro xonligida hukmdorlarni taxtga o'tqazilishi masalalarini tahlil qilib, shunday xulosa qilish mumkinki, shayboniylar, ashtarxoniylar, hatto, mang'itlar ham Chingiziylarning oliy hukmdorlik huquqi davomiyligiga erishishga harakat qilganlar.

- Amir Temur hukmdorlik ramzi sifatida yangi bir an'anani — Ko'ktoshda o'tirish marosimini joriy qilgan. Bu tosh oddiy hukmdorlik taxti emas, balki "ilohiy qudrat" ramzi hisoblangan va real hokimiyat egasigina unga o'tirishga haqli bo'lgan. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida bu an'ana Oq kigiz marosimi bilan birlashtirilib, ularning nafaqat chingiziylar, balki temuriylar davlatining ham qonuniy vorisi ekanligini anglatgan.

- Shuningdek, Buxoro xonligida hukmdorlarning taxtga o'tirish an'anasida turkiy va islomiy an'analarning uyg'unlashuvi: hukmdorni oq kigizga ko'tarish qadimiy turkiy qadriyatlar (poklik, adolat, xalq bilan bog'liqlik) va keyinchalik, islomiy tamoyillar bilan uyg'unlashib ketgan.

- Hukmdorlikka saylash yoki tayinlash faqat sulola doirasidagi emas, balki keng ijtimoiy qatlamlar — yuqori martabali zodagonlar, qabila sardorlari, qozi va ulamolarning roziligi bilan amalga oshirilgan. Bu harakat hokimiyatning qonuniyligini oshirishga va barcha guruhlar tomonidan tan olinishini ta'minlashga xizmat qilgan.

- Qurultoy yoki kengashda amaldorlarning joylashuvi tartibi, ya'ni "jarga" muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Hukmdorning chap tomoni eng nufuzli deb hisoblanib, u yerni naqib, otaliq kabi dunyoviy mansabdorlar egallagan. O'ng tomonda esa shayxulislom va boshqa diniy arboblari o'tirgan. Bu davlat boshqaruvida harbiy va diniy hokimiyatlarning alohida o'rnini ko'rsatgan.

• Ayrim marosimlar hukmdorning layoqatini sinash xarakteriga ega bo'lgan. Eronlik elchi guvohligicha, yangi xon oq kigizga o'tqizilib, taxt ustiga "uloqtirilgan". Agar u taxtga mustahkam o'rnashib qolsa, uzoq hukmronlik qilishi bashorat qilingan. Bu sinov hukmdorning jismoniy va ruhiy mustahkamligini ramziy ifodalagan.

• Yangi xon taxtga o'tirganidan so'ng, uning nomi yozilgan tangalar zarb qilingan va uning sharafiga xutba o'qilgan. Bu hukmdorning mustaqilligi va rasmiy hokimiyatini tasdiqlovchi eng muhim belgilar hisoblangan. Marosimdan so'ng o'tkazilgan ziyofatda qatnashchilarga to'n in'om etilishi esa hukmdorning ijtimoiy mavqeini yanada oshirgan.

• Ashtarxoniylar sulolasini tugatgan mang'itlar vakili Muhammad Rahimxon Chingiziy naslidan bo'lmagan. Shu sababli u hokimiyatini qonuniylashtirish maqsadida Abulfayzxonning qiziga uylangan va keyin oq kigizga ko'tarilish marosimi orqali hukmdorlikni rasman qabul qilgan. Bu holat Markaziy Osiyo davlatchiligida xonlik unvonining sulolaviy emas, balki siyosiy ehtiyojlar asosida ham o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Скайлер Южин. Туркистон: Россия Туркистони, Кўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. / Инглиз тилидан таржима, кириш ва изоҳлар муаллифи З.А.Саидбобоев. – Т.: Ўзбекистон, 2019. 197-б.
2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Б. 83.
3. Мулла Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. / Араб ёзувидан таъдир муаллифлари Ш.Воҳидов, Р.Ҳолиқова. Т.: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 194.
4. Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. – Т.: Фан, 1994. – Б. 38-39.
5. Egamberdiyev A. Buxoro amirlarini oq kigizga ko'tarish masalalariga oid ayrim mulohazalar (Muhammad Rahimbiy misolida). // Mirzo Ulug'bek – buyuk mutafakkir olim va davlat arbobi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani to'plami. T., 2024. – B. 962; Джурабаев Д.Х. Церемониал возведения на престол правителей Бухарского ханства – «поднятие на белой кошме» // Современные проблемы науки и образования. – 2013. – № 5. – С. 2.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2000.
7. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. 2-китоб. / Форс тилидан с.Мирзаев ва Ю.Ҳакимжонов таржимаси. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 136.
8. Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. / Ўзбек тилига таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ғ.Каримий, Э.Миркомиллов. – Т.: Мовароуннаҳр, 2016. – Б. 152.

9. Замонов А., Эгамбердиев А. Амир Темур тарихидан лавҳалар. Т.: Баёз, 2021. – Б. 18.
10. Zamonov A., Egamberdiyev A. O‘zbekiston tarixi. IV-qism. Т.: Bayoz, 2022. – В. 460.
11. Ризоқулихон Ҳидоят. Сафарномаи Хоразм. / – Б. 141.
12. Thomas Welsford. The Tuqay-Timurid Takeover of Greater Ma wara alnahr, 1598 – 1605. – Boston: 2013. – P. 82-87.
13. Ron Sela. The “Heavenly Stone” (Ko‘k Tash) of Samarqand. // Journal of the Royal Asiatic Society. Vol. 17. No. 1. 2007. – P. 21 – 32.
14. Ахмедов Б.А. История Балха. – Т.: Фан, 1982. – С. 105.
15. Ron Sela. The “Heavenly Stone” (Ko‘k Tash) of Samarqand. // Journal of the Royal Asiatic Society. Vol. 17. No. 1. 2007. – P. 21 – 32.
16. Муҳаммад Амин Бухорий. Муҳит ат-таворих. / Форс тилидан таржима, кириш ва изоҳлар муаллифлари Д.Юсупова, У.Ҳамраев. – Т.: Фан, 2020. – Б. 38.
17. Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. / Ўзбек тилига таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ғ.Каримий, Э.Миркомиллов. – Т.: Мовароуннаҳр, 2016. – Б. 206-208.
18. Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. – Б. 206.
19. Sangirov J. O‘zbek davlatchiligi tarixi: ashtarxoniylar davri boshqaruv tizimi. PhD dissertatsiyasi. – Т., 2024. – В. 112.
20. Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-мулук. / Форс-тожик тилидан таржима, сўзбоши, изоҳлар муаллифи Ж.Эсонов. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1997. – Б. 154.
21. Наказ Борису и Семену Пазухным, посланным в Бухару, Балх и Юргенчъ. – С. 52 – 53.
22. Алексеев А.К. Политическая история Тукай-тимуридов по материалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрар. – Санкт-Петербург: 2006. – С. 140.
23. Наказ Борису и Семену Пазухным, посланным в Бухару, Балх и Юргенчъ. – С. 52 – 53.
24. Алексеев А.К. Политическая история Тукай-тимуридов по материалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрар. – Санкт-Петербург: 2006. – С. 140.
25. Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. – Б. 207-217.
26. Бартольд В.В. Церемониал при дворе узбекских ханов в XVIII в. Т. II. Ч. 2. – Москва: Наука, 1964. – С. 394 – 395

27. Sangirov J. O'zbek davlatchiligi tarixi: ashtarxoniylar davri boshqaruv tizimi. PhD dissertatsiyasi. – T., 2024. – B. 57.
28. Анке фон Кюгелген. Легитимация Среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII – XIX вв.). – Алматы: Дайк-Пресс, 2004. –
29. Григорьев В.В. О некоторых событиях в Бухаре, Коканде и Кашгаре. Записки Мирзы-Шемса Бухари. – Казань, 1861. – С.3.
30. Муҳаммад Вафои Карминагий. Тўхфат ул-хонӣ. Муқаддима, таҳияи матн, нусхабадал, таълиқот ва фехристҳои Жамшед Чўразода ва Нурулло Ғиёсов. – Хўчанд, 2017. – С. 240.
31. Муҳаммад Вафои Карминагий. Тўхфат ул-хонӣ. Муқаддима, таҳияи матн, нусхабадал, таълиқот ва фехристҳои Жамшед Чўразода ва Нурулло Ғиёсов. – Хўчанд, 2017. – С 240-241.